

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MEDIA MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

*Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi kafedrasi mudiri, pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Bo'riyeva Shaxnoza Inat qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada media va mediamadaniyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati yoritilgan, shuningdek, boshlang'ich sind o'quvchilarining media madaniyatini rivojlanirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Jahon bo'ylab jadal tus olayotgan axborot asrining globallashuv jarayoniga xos bo'lgan g'oyalar kurashi, axborot xuruji avj olgan bir davrda mamlakatimizda o'sib kelayotgan avlod, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yanada dolzarb hamda muhim masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur masalani hal etishda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Media, axborot, ta'lif, madaniyat, mediata'lif, multimedia, axborot, axborot madaniyati, shaxs madaniyati.

Bugun yurtimizda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotida tutgan o'rni toboro ortib bormoqda. Inson hayotining deyarli barcha jabhalarini mediasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot bilan ishlash, tarqatish, tasarruf qilish va uzatish ko'nikmalari zamonaviy shaxsning kompetentligi va madaniyatining darajasini aniqlab bermoqda. Ommaviy axborot vositalariga to'rtinchi hokimiyat maqomining berilishi, siyosiy jarayonlarga ham bevosita media tomonidan yoritilib borishi shaxs va davlat, jamiyatning uyg'unligini ta'minlashda o'rni beqiyosligini tastiqlaydi. Ta'lif jarayonida ham multimedia vositalaridan foydalanishning ilmiy metodik asoslari va uning samarali usullari, bugungi kunga qadar ko'plab pedagogik ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajriba sinov ishlari orqali isbotlangan.

Mamlakatimizda ta'lif sohasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda, ilg'or xorijiy davlatlarning pedagogik tajribalari asosida darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchining mustaqil fikrlashga muammoli vaziyatlardan chiqishga xulosa qilishga o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich sind o'quvchilari mediamadaniyatini rivojlanirish globallashuv sharoitida muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Mediamadaniyat haqida Marshall Maklyuen „Inson tom ma'noda savodli bo'lishi uchun avvalo media olamida savodli bo'lishi kerak“ degan edi. Mediata'lifning umumiy mohiyati yosh avlodni uning hayotida tobora mustahkam o'rin egallab, unga keng ko'lamli axborot muhitini taqdim etayotgan ommaviy axborot vositalari materiallari yordamida tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda: o'quvchining media vositalari orqali boshqa

sub'yeqtlar bilan muloqotini tashkil etish, media vositalaridan keng ko'lamli foydalanish katta hajmdagi axborotlarning uzatilishi :media tomonidan uzatilayotgan axborotlarning o'quvchi tomonidan ijodiy, tanqidiy baholashga erishish o'quvchining mediamatlarni sharxlay olish , tahlil qilish va sentezlash ko'nikmalarini rivojlanishi o'quvchilarning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona ongli foydalanishi o'quvchining mediamadaniyatining rivojlanganligining belgisi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish yosh avlodning axborot xavfsizligiga qarshi immunitet hosil qilishiga zamin yaratadi. Bu esa „mediasavodxonlik” ”mediabilimdonli,, “mediamahorat,, „mediakompetentlik” mediamadaniyatni rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Dastlab „mediamadaniyat” tushunchasining mohiyatini bilish maqsadga muvofiqdir. Bir so'z bilan aytganda “media” nima? “madaniyat,, nima? „axborot” nima? mediasavodxonlikning tub mohiyatini bilish o'quvchilarning media madaniyatini oz bo'lsada rivojlanishiga yordam beradi. „Media” tushunchasi inglizcha so'z bo'lib ushbu so'z O'zbekiston hududida til is'temoliga keng qo'llanilmaydi. Mazkur tushuncha ornida „Ommaviy axborot vositalari atamasi ishlataladi ya'ni ommani axborot bilan tezkor sifatli to'liq habardor qilishdan iborat. „Madaniyat” lot. „culture” jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy- ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari degan ma'noda keladi ba'zi manbalarda bu so'zni til iste'molga rim arbobi „, Mark Porsiy Katon “ olib kirdi. Madaniyatshunoslikda mediamadaniyat bu atama ommaviy axborot vositalari (asosan televideniye, shuningdek, matbuot, radio va filmlar) nafaqat jamoatchilik fikriga, balki did va qadriyatlarga ko'satadigan umumiyligi va intellektual ta'sirni anglatadi „„Mediamadaniyat”- shaxs kamolotini belgilovchi darajalar sifatida namoyon bo'ladi. Axborot” bu biron voqeа haqidagi batafsil xabar, ma'lumot degan ma'noni bildiradi. „Mediata'lim” global axborotlashuv sharoitida shaxsni media tomonidan tarqalayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga doir nazriy bilimlar majmui bilan qurollashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim turlaridan biri hisoblanadi. Media ta'limning asosiy vazifalari: yangi avlodni zamonaviy axborot sharoitida hayotga tayyorlash, turli ma'lumotlarni idrok etish, insonni uni tushunishga o'rgatish, uning psixikaga ta'sirining oqibatlarini anglash, ta'sir qilish usullarini o'zlashtirish va og'zaki bo'Imagan shakllarga asoslangan muloqot texnik vositalardan foydalangan holda munosabatga kirishish demakdir. „Mediamahorat” tushunchasi shunday sharplash mumkin, mediamahorat shaxsning shaxsiy yoki kasbiy qiziqish, extiyoj va majburiyatlaridan kelib chiqib, mavjud bilim, malakalar negizida media orqali tarqatilayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash mohirlikni namoyon qilish tushuniladi.,, Shaxs mediamadaniyati”- shaxs madaniyati uchun zarur qism bo'lib ommaviy media turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlarni bilish uni tahlil qilish tushuniladi.

Boshlang'ich sinflarda mediamadaniyatining rivojlanishi, ta'lim muassasalari va ulardan tashqarida mediata'limning maqsadli, izchil va tizimli tarzda tashkil etilishiga

bog'liq ammo mediata'limning oilada tashkil etish zarur. Ota-onalarning o'zlarini ham mediapedagog sifatida farzandlarida mediasavodxonlik, bilimdonlik, kompetentlik, maxorat va madaniyatini shakllantirish yo'lida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mediamadaniyatini rivojlantirishga erishishning eng samarali yo'li o'qitish tizimiga mediata'limni tatbiq etish sanaladi. Mediata'lim samaradorligini oshirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot muhitida „to'g'ri harakatlanish” ularning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limga sohasida mediamadaniyatni shakllantirishga doir turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi farmonida „Uzliksiz ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'limga tizimini xizmatlari, imkoniyatlarini oshirish, maqsadida dars jarayonida mediamahsulotlardan erkin foydalanish yo'lga qo'yilishini kerakligi ma'lum qilindi. Yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish ko'zda tutilgan. Mutahasislar tomonidan tayyorlangan elektron resurslar o'quvchilarning bilimlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Mavzular yuzasidan shakllantirilgan multimedia mahsulotlari, o'qituvchiga ko'makchi, ota-onalarga yo'l ko'rsatuvchi, o'quvchiga esa bilimlarni mukammal o'zlashtirish imkonini yaratadi. Dars mavzusiga oid multemidiya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. Boshlang'ich ta'limga tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvlidir. Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchilarning xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlshtirilishiga yordam beradi. Dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanayotgan axborot ko'lami, ularni o'zlashti ni yaratish, amaliyotga joriy etish ta'limga bosqichlarining barcha bo'ginlaridagi jarayonlarni kompyuterlashtirish yo'lida uchraydigan muammolarni bartaraf etish va qayta ishlashga imkon beruvchi yangi axborot va pedagogic texnologiyalar qilishga qaratilgan ilmiy-metodik ishlar, turli umumta'limga fanlaridan elektron darslik va pedagogik dastur vositalariga zaruriyat kundan-kunga oshib bormoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarni jonlantirishga yordam beradi, bolalarga dastur materialini yaxshiroq o'rganish imkonini beradigan yorqin vizual tasvir sifatida ishlaydi. Birinchi sinf o'quvchilari ertak qahramonlarini o'rgatish, xatolarni tuzatish, qahramonlarga qiyin vaziyatlardan chiqishga yordam berish, o'z yechimlarini taklif qilishni yaxshi

ko'radilar, bolalar esa osongina muloqot qilishadi, o'z fikrlarini bildirishdan yoki boshqa asosli qaror qabul qilishdan qo'rqlashtiradi. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagogik jarayon o'z navbatida, o'qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, interfaol metodlardan foydalanishi, takomillashtirishi o'quvchilarning bilim olish darajasi ortishiga sabab bo'ladi. Boshlang'ich sinfda axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'rganish va aqliy rivojlanishiga xissa qo'shishi kerakligini yodda tutush kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb atash mumkin. Bola axborot komunikatsiya texnologiyalarining ma'lum bir o'quv fuksiyasini bajarishi eslab qolishiga yordam berishi kerak. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonining yordamchi elementi bo'lishi kerak deb o'ylayman. Axborot asri deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. So'ngi rusumdagagi telefon, planshet, noutbuk va komputerlar internet orgali bizga asosiy ma'lumot va yangiliklarni bir zumda aniqlashda beminnat xizmat qiladi. Hozirgi zamonda internet tarmog'idagi saytlardan yosh avlod axborotlarni bir necha daqiqalarda olishlari mumkin. Bu juda qulay, oson va vaqtadan yutishga imkon beradi. Ammo masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Internetdan keraksiz va buzg'unchi g'oyalalar maqsadida, axborot huruji sifatida hamda har xil yoshlarni miyasini zaharovchi vosita sifatida foydalanuvchilar ham yo'q emas. Qaysiki o'zining mustaqil tafakkuriga, intellektual ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlar har qanday hurujlardan o'zini himoya qila oladi. Bu borada yoshlar ma'naviyati va milliy madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ma'naviy imunitetini shakillantirish va ularda ilmiy va dunyoviy qarashlarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday jarayonning salbiy va ijobjiy tomonlari bo'lganidek, internet va axborotkommunikatsiya texnologiyalarining salbiy tomonlari ham mavjud. Tan olib aytishimiz kerakki, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanmagan vaqtarda yoshlar ilm olishga, kitob o'qishga, sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga oshiqishgan. Bugungi yoshlarning qiziqishi esa aksincha. Endi ularning ko'pchiligi internet kafelari, kompyuter o'yinlari markazlariga intilmoqdalar. Ammo ular bu yoshida bilim egallash, kasb-hunar o'rganish, o'zini kelajagini yaratish uchun harakat qilishlari lozim. Internetda tarqaladigan turli yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan xabarlar, be'mani rasmlar, videolar va kompyuter o'yinlari natijasida yoshlarning saviyasi pasayib, hayotga, atrof-muhitga va insonlarga bo'lgan munosabati tubdan yomonlashib bormoqda. Beshavqat kompyuter o'yinlari yoshlar ongini zaharlamoqda. Bu o'yinlarda kimnidir o'ldirishadi, atrofni vayron qilishadi va vayronkor g'oyalarni amalga oshirishadi. Bunaqa jangari o'yinlarni o'ynayotgan yoshlar kelajakda qanaqa inson bo'ladi degan savolga javob qanday bo'ladi?. Bu kabi kompyuter o'yinlari yoshlarni bemehr, qo'pol qilib qo'yadi, yaxshilikdan uzoqlashtiradi. Bundan tashqari asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va buning oqibatida ular asabiy va jahldor bo'lib, o'z yaqinlariga turli jabrlarni keltirib chiqarmoqda. 7–10 yoshda bolaning farqlash hissi juda faol bo'lgani bois, unga to'g'ri axborotlarni berishni

nazorat qilmoq lozim. Chunki shu yoshda axborotni anglash qobiliyati shakllana boshlaydi. Ushbu yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanib endigina o'qishni o'rgangani oxirigacha tushunib yetmaydilar. Multfilm va rang--barangligi bilan jalb qiluvchi o'yinlarga qiziqish bo'lgani bois, bolalar ko'p hollarda shu kabi axborotlarni qidirishadi. O'quvchilar uchun internetda juda ko'p foydali, ma'rifiy va qiziqarli axborotlar mavjud bo'lib, ulardan to'g'ri va samarali foydalangan o'quvchiga turli sohalar bo'yicha bilimi oshib borishiga yordam beradi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilari mediamadaniyati negizida, shuningdek axborotlashgan jamiyat uchun xos bo'lган muhim sifat axborotlarni uzatish va uni qabul qilish madaniyati yotadi bu esa shaxs kamolotining darajasi deya aytishimiz mumkin. Yosh qiziquvchi o'quvchilarni davr talabi bo'lган mediamadaniyatini oshirish biz pedagoglarning hamda ularning ota-onalarining vazifalari hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'lim tizimidan farq qilib jahon ta'lim standartlariga mos darslarni tashkil qilish mumkin. Dars jaronida turli xildagi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda olingan bilimlarni yanada rivojlantirishga ko'mak beradi. Media orqali tarqalayotgan axborotlarni mustaqil tahlil qilish tanidiy fikrlash o'z fikriga egalik tashqi ta'sirlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantiradi deb o'ylayman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1.O'zbekiston Respublikasi „Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonun\_2018 yangi tahrir;

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi farmonida\_2017; PF-4947sonli

3.Axborot texnologiyalari \_ Samarqand 2020 Aminov.I.B Bistonov.X,A

4.Axborot texnologiyalari o'quv jarayoniga kiritish”boshlang'ich,, mакtab jurnali

5.Ijodkor o'qituvchi ilmiy uslubiy jurnal \_2022 yil 17 son Maqsudov U.

6.O'quvchi yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi \_2016 Toshkent.

7. www.Ziyo.uz kutubxonasi

8.Mediata'lim va media madaniyat:nazariyasi va amaliyot 2019

9.Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogic va axborot texnologiyalaridan qo'llash\_ Toshkent2017 M.Inoyatova

10.Umumiy o'rta ta'lim maktablarida modulli o'qitish jarayonlarini texnologik ta'minlashning nazariy metodologik asoslari G'.G'ulom;2016

11.Internetdagi tahdidlardan himoya;2020

12.Ta'limda axborot texnologiyalari\_Toshkent; 2010.

13.Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya\_Toshkent;2021

- 14.O'zbek tilining izohli lug'ati\_ Targ'ibot 5jildli; 2006
- 15.O'zbekiston milliy insiklopediyasi \_Davlat milliy nashriyoti;2002
- 16.Texnik aloqa vositalari orqali olib borilgan suhbatlar\_o'quv qo'llanma\_2014;
- 17.Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари. Ўкув-амалий қўлланма. - Т.: Extremum-press, 2017.
- 18.Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lif sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ М.Х. Тохтакоджайева, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.
- 19.Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси / Б.Ходжаев, М.Махмудова – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016. Очиқ ахборот тизимларида ахборот- психологик хавфсизлик: ўқув қўлланма Умаров Б., Ахмедова М. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги; Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ун-ти : - T. Chashma Print, 2013. . Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либерея-Бибинформ, 2007.
- 20.<http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot-olish-madaniyatini-shakllantirishdaijtimoiy-meyorlarning-orni/>